

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA EKOLOGIK
BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHNING INTERFAOL USULLARI**

Parpiyev Odil Olimovich

Qo‘qon universiteti Filologiya kafedrasi dotsent v.b.

odilparpiyev71@gmail.com, tel.: +998996193971

ORCID: 0000-0002-7398-7155

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21158853>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qish savodxonligi darslari orqali ekologik bilim berishning interfaol usullari yoritilgan. Unda o‘quv materiallari mazmunidan kelib chiqib, o‘quvchilarda tabiatga ongli munosabat, ekologik madaniyat, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash va og‘zaki nutq faolligini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Maqolada “Do‘stimga xat”, “Quvnoq harflar”, “Mozaika”, “Qofiyadoshni top”, “Ma‘nodoshni top” kabi interfaol metodlarning o‘qish savodxonligi darslarida qo‘llanishi amaliy misollar asosida ko‘rsatib berilgan. Ushbu metodlar o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish, ekologik tushunchalarni ongli o‘zlashtirish, matn ustida mustaqil ishlash va nutqiy faolligini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so‘zlar: ekologik bilim, boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, interfaol metod, ekologik madaniyat, tabiat, o‘quv topshirig‘i, nutqiy faollik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются интерактивные методы формирования экологических знаний у учащихся начальных классов на уроках читательской грамотности. На основе содержания учебных материалов проанализированы возможности развития у учащихся осознанного отношения к природе, экологической культуры, наблюдательности, самостоятельного мышления и речевой активности. В статье на практических примерах раскрывается применение таких интерактивных методов, как «Письмо другу», «Весёлые буквы», «Мозаика», «Найди рифму», «Найди синоним», на уроках читательской грамотности. Обосновано, что использование данных методов способствует повышению интереса учащихся к уроку, осознанному усвоению экологических понятий, самостоятельной работе с текстом и развитию речевой активности.

Ключевые слова: экологические знания, начальное образование, читательская грамотность, интерактивный метод, экологическая культура, природа, учебное задание, речевая активность.

Abstract. This article examines interactive methods for developing ecological knowledge among primary school pupils in reading literacy lessons. Based on the content of educational materials, the study analyzes the possibilities of fostering pupils' conscious attitude toward nature, ecological culture, observation skills, independent thinking, and oral speech activity. The article illustrates, through practical examples, the application of such interactive methods as “A Letter to a Friend,” “Cheerful Letters,” “Mosaic,” “Find the Rhyme,” and “Find the Synonym” in reading literacy lessons. It is substantiated that the use of these methods helps increase pupils' interest in the lesson, promote the conscious acquisition of ecological concepts, develop independent work with texts, and enhance speech activity.

Keywords: ecological knowledge, primary education, reading literacy, interactive method, ecological culture, nature, learning task, speech activity.

Kirish

Boshlang’ich ta’lim bosqichida o’quvchilarda ekologik bilim va ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi ta’lim jarayonining muhim yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan kichik maktab yoshida bolalarda tabiatga mehr, atrof-muhitni asrash, mavjud tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, o’z xatti-harakatining ekologik oqibatlarini anglash kabi dastlabki tasavvurlar shakllanadi. Shu jihatdan boshlang’ich sinf o’qish savodxonligi darslari nafaqat o’quvchilarning o’qib tushunish malakasini rivojlantirish, balki ularning ekologik tafakkurini shakllantirish uchun ham muhim imkoniyat yaratadi.

Ta’lim davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylangan hozirgi sharoitda boshlang’ich ta’lim mazmunini takomillashtirish, darsliklarning yangi avlodini yaratish, o’quvchilarni mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga, o’z munosabatini bildirishga o’rgatish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Yangi avlod darsliklarida matn, rasm, savol-topshiriq va amaliy mashqlar uyg’unligi o’quvchilarning faolligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tabiat, yil fasllari, hayvonot va o’simliklar dunyosi, atrof-muhitni muhofaza qilishga oid matnlar o’quvchilarda ekologik tasavvurlarni shakllantirish uchun qulay didaktik asos bo’la oladi [2], [3].

Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun ekologik bilimlar murakkab nazariy tushunchalar shaklida emas, balki kundalik hayot, kuzatish, matn o’qish, savol-javob, o’yin, rasm asosida matn tuzish, maqol va she’rlar ustida ishlash orqali berilishi maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda interfaol metodlardan foydalanish o’quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga, fikr bildirishga, guruhda ishlashga va ekologik hodisalarga ongli munosabatda bo’lishga o’rgatadi [1].

Asosiy qism

Boshlang’ich sinflarda o’qish savodxonligi darslari o’quvchilarning nutqini rivojlantirish, matn mazmunini anglash, voqea-hodisalarga munosabat bildirish, xulosa chiqarish va mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu darslarda ekologik mazmundagi matnlardan foydalanish orqali o’quvchilarning lug’at boyligi kengayadi, tabiat hodisalariga qiziqishi ortadi, ekologik so’z va tushunchalarni nutqda qo’llash malakasi rivojlanadi.

O’qish savodxonligi darsliklarida tabiat manzaralari, yil fasllari, qushlar, hayvonlar, o’simliklar, ob-havo hodisalari, suv, havo, tuproq, tozalik va atrof-muhitga oid matnlar uchraydi. Bunday matnlar ustida ishlash jarayonida o’qituvchi o’quvchilarga faqat matnni o’qitish bilan cheklanib qolmasdan, ularga ekologik mazmundagi savollar berishi, matndagi tabiatga oid so’zlarni ajratishi, voqealar sabab-oqibatini aniqlatishi va o’quvchilarning shaxsiy munosabatini shakllantirishi zarur.

Masalan, o’quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin: “Nima uchun tabiatni asrash kerak?”, “Suv isrof qilinsa, qanday oqibatlar yuz beradi?”, “Daraxtlarning inson hayotidagi ahamiyati nimada?”, “Qushlarga g’amxo’rlik qilish deganda nimani tushunasiz?” Bunday savollar o’quvchilarni o’ylashga, mulohaza yuritishga, tabiatga ongli munosabat bildirishga o’rgatadi.

Interfaol metodlar o’quvchilarning o’zaro hamkorlikda ishlashi, fikr almashishi, muammoni birgalikda hal qilishi va faol ishtirok etishiga asoslanadi. “Interfaol” tushunchasi o’zaro harakat, hamkorlik, muloqot va faol ishtirokni anglatadi. Boshlang’ich sinf darslarida interfaol metodlardan foydalanish o’quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo’lishi, sodda, qiziqarli va qisqa vaqt ichida bajariladigan topshiriqlarga asoslanishi lozim [1].

“Do’stinga xat” mashqi

“Do’stinga xat” mashqi o’quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish, savol tuzish, fikrni aniq ifodalash va ekologik bilimlarini mustahkamlashda samarali hisoblanadi. Bu mashq juftlikda bajariladi. Har bir o’quvchiga kichik qog’oz beriladi. O’quvchilar o’tilgan mavzu yoki ekologik mazmundagi matn asosida savol tuzadilar va uni partadoshiga uzatadilar. Partadoshi esa savolga yozma yoki og’zaki javob beradi.

Masalan, o’quvchilar quyidagi savollarni tuzishlari mumkin:

- Biogumus qanday hosil bo’ladi?
- Chirindilarni qanday tayyorlash mumkin?
- Tabiatni asrash uchun nimalarga amal qilish kerak?
- Qushlarga qishda qanday yordam berish mumkin?
- Daraxt ekishning foydasi nimada?

Ushbu mashq o’quvchilarda ekologik tushunchalarni mustahkamlash bilan birga, savol tuzish, javob berish, fikrni izchil bayon qilish, juftlikda ishlash va o’zaro muloqotga kirishish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

“Quvnoq harflar” usuli

“Quvnoq harflar” usuli she’r, maqol yoki kichik matnlarni eslab qolish, ularning mazmunini anglash va o’quvchilarning xotirasini rivojlantirishda qo’llaniladi. Bunda o’qituvchi she’rni bir necha marta ifodali o’qib beradi. So’ng she’rdagi asosiy so’zlarning bosh harflari doskaga yoziladi. O’quvchilar shu harflar asosida she’rni eslab qoladilar va qayta aytib beradilar.

Masalan, tabiat, fasllar, qushlar yoki ekologik mazmundagi maqollar asosida quyidagi shaklda mashq tashkil qilish mumkin:

**Yer haydasang, kuz hayda,
Kuz haydamasang, yuz hayda.**

Y H K H

K H Y H

Bu usul o’quvchilarning xotirasini mustahkamlash, maqol mazmunini anglash va tabiat bilan bog’liq xalqona qarashlarni tushunishiga yordam beradi. Shuningdek, bunday topshiriqlar orqali o’quvchilar nutqida ekologik mazmundagi so’z va iboralar faol qo’llana boshlaydi.

“Mozaika” metodi

“Mozaika” metodi o’quvchilarning kuzatuvchanligi, tasavvuri, guruhda ishlash ko’nikmasi va matn tuzish malakasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu metodda o’quvchilar kichik guruhlariga bo’linadi. Har bir guruhga tabiat manzarasi, yil fasli yoki ekologik holat tasvirlangan bo’laklarga ajratilgan rasmi konvert beriladi. O’quvchilar rasm bo’laklarini yig’ib, hosil bo’lgan tasvir asosida matn tuzadilar.

Masalan, “O’lkamizda qish” mavzusini o’tishda o’quvchilarga qish manzarasi tasvirlangan rasm bo’laklari beriladi. Ular rasmini yig’gach, quyidagi savollar asosida matn tuzishlari mumkin:

- Rasmda qaysi fasl tasvirlangan?
- Qishda tabiatda qanday o’zgarishlar bo’ladi?
- Qushlar va hayvonlarga qishda qanday yordam berish kerak?
- Odamlar qishda tabiatni asrash uchun nimalarga e’tibor berishi lozim?

Bu metod o’quvchilarning ekologik kuzatuvchanligini oshiradi, ularni rasm asosida mantiqiy izchillikda matn yaratishga, guruhda fikr almashishga va o’z xulosasini bayon qilishga o’rgatadi.

“Qofiyadoshni top” o’yini

“Qofiyadoshni top” o’yini o’quvchilarning fonetik sezgirligi, lug’at boyligi va she’riy matnlarni anglash malakasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o’yinda o’quvchilarga ma’lum so’zlar beriladi va ular shu so’zlarga qofiyadosh so’zlarni topadilar.

Masalan:

boy – poy,
soy – toy,
joy – loy,
moy – choy.

O’qish savodxonligi darslarida she’riy matnlar ustida ishlash jarayonida ushbu usuldan foydalanish o’quvchilarning she’r ohangini his qilishiga, tovush uyg’unligini sezishiga, so’zlarni fonetik jihatdan farqlashiga yordam beradi. Ekologik mazmundagi she’rlar ustida ishlaganda esa o’quvchilar tabiatga oid so’zlarni aniqlaydi, ularning qofiyadoshlarini topadi va she’r mazmunini chuqurroq anglaydi.

Masalan, qish, qor, bahor, shamol, yomg’ir, daraxt, qush kabi so’zlar asosida qofiyadosh so’zlar topish orqali o’quvchilarning lug’ati boyitiladi. Bu esa o’qish savodxonligi bilan birga fonetik, leksik va nutqiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

“Ma’nodoshni top” o’yini

“Ma’nodoshni top” o’yini o’quvchilarning lug’at boyligini oshirish, so’zlarning ma’nodoshlik munosabatini anglash va ularni nutqda to’g’ri qo’llashga o’rgatadi. Bu o’yinda o’quvchilarga bir so’z beriladi va ular shu so’zga yaqin ma’noli so’zlarni topadilar.

Masalan:

Vatan – diyor, o’lka, yurt, maskan.
Tabiat – borliq, atrof-muhit, olam.
Toza – pokiza, ozoda, sof.
Asrash – saqlash, muhofaza qilish, ehtiyotlash.

O’qish savodxonligi darslarida ekologik mazmundagi matnlar bilan ishlaganda “tabiat”, “suv”, “havo”, “yer”, “daraxt”, “tozalik”, “muhofaza”, “ona tabiat” kabi so’zlarning ma’nosi izohlanadi. O’quvchilar bu so’zlarga ma’nodosh yoki yaqin ma’noli birliklarni topish orqali o’z nutqida ekologik tushunchalardan faol foydalanishga o’rganadilar.

Bu o’yin o’quvchilarning faqat lug’at boyligini emas, balki ekologik ongini ham rivojlantiradi. Chunki bola “asrash”, “ehtiyotlash”, “muhofaza qilish” kabi so’zlarning mazmunini tushungan sari tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo’lishga intiladi.

Ekologik mazmundagi matnlar ustida ishlashning metodik ahamiyati

O’qish savodxonligi darslarida ekologik mazmundagi matnlar bilan ishlash o’quvchilarning bir nechta kompetensiyalarini bir vaqtda rivojlantiradi. Birinchidan, o’quvchilar matn mazmunini tushunadi, asosiy fikrni ajratadi, voqealar ketma-ketligini aniqlaydi. Ikkinchidan, matndagi ekologik tushunchalarni o’zlashtiradi, ularning hayotiy ahamiyatini anglaydi. Uchinchidan, o’z fikrini og’zaki va yozma shaklda bayon qilishga o’rganadi. To’rtinchidan, tabiatni asrash, atrof-muhitni toza saqlash, o’simlik va hayvonlarga g’amxo’rlik qilish kabi tarbiyaviy xulosalar chiqaradi.

Boshlang’ich sinflarda bunday ishlarni quyidagi topshiriqlar orqali tashkil etish mumkin:

- matndagi tabiatga oid soʻzlarni topish;
- ekologik mazmundagi gaplarni ajratish;
- matn asosida savol tuzish;
- rasm asosida ekologik mazmundagi hikoya tuzish;
- “Tabiatni asraylik” mavzusida kichik matn yozish;
- matn qahramonlarining tabiatga munosabatini baholash;
- ekologik xulosa chiqarish.

Bunday topshiriqlar oʻquvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini, nutqiy faolligini va ekologik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlangʻich sinf oʻqish savodxonligi darslarida ekologik mazmundagi matnlar bilan ishlash oʻquvchilarda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Oʻqish savodxonligi darslari orqali oʻquvchilar nafaqat matnni oʻqish va tushunish, balki tabiat hodisalarini kuzatish, ekologik tushunchalarni anglash, oʻz fikrini bildirish va xulosa chiqarish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Interfaol metodlardan foydalanish esa bu jarayonni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. “Doʻstimga xat”, “Quvnoq harflar”, “Mozaika”, “Qoʻfiyadoshni top”, “Maʼnodoshni top” kabi usullar oʻquvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ularni savol tuzishga, matn yaratishga, fikr almashishga, guruhda ishlashga va ekologik hodisalar haqida mustaqil mulohaza yuritishga undaydi.

Demak, boshlangʻich sinf oʻqish savodxonligi darslarida ekologik bilimlarni interfaol metodlar asosida berish oʻquvchilarning ekologik tasavvurlarini boyitish bilan birga, ularning nutqiy, ijodiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shu bois oʻqituvchi har bir mavzuni oʻquvchilarning yosh xususiyatlari, darslik materiallari va hayotiy tajribasi bilan bogʻlagan holda tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matchonov S., Bakiyeva H., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Xolboyeva G. Boshlangʻich sinflarda ona tili oʻqitish metodikasi. Darslik. Toshkent, 2021.
2. Toirova M.E. Oʻqish savodxonligi. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. I qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. 81 b.
3. Aydarova U.B., Azizova N.K., Toirova M.E. Oʻqish savodxonligi. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. II qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. 80 b.
4. Gaynazarova G.A., Matnazarova K.O., Parpiyev O.O. Factors and methods of preparing students for professional activities in the conditions of individual training. Academia Repository, 2023, 4(12), 131–135.
5. Olimovich P.O. Rivojlanish vositasi sifatida TRIZ texnologiyasining xususiyatlari. Образование, наука и инновационные идеи в мире, 2023, 24(1), 17–20.
6. Mushtariy O., Parpiyev O. Boshlangʻich taʼlim tizimiga zamonaviy yondashuvlar. Qoʻqon universiteti xabarnomasi, 2023, 640–644.
7. Gʻulomjon filolog: NO, P. The Harmony Of Characters’ Speech And Psychological Portrayal In Nabijon Boqi’s “A Tale Of One Love”.
8. Gʻulomjon filolog: Khodjaev, S., & Abdupattaev, G. (2022). The Problem of Era and Hero in the Work of Murad Muhammad Dost. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(12), 77-81.